

XORAZM VILOYAT XALQ TA'LIMI BO'LIMI

19-SON MAKTABI MATEMATIKA  
O`QITUVCHISI  
ABDULLAYEVA O`G`ILJONNING

*“YURT TINCHLIGI MUQADDAS”*  
MAVZUSIDAGI  
TADBIR ISHLANMASI

Urganch 2006 yil

**Tuzuvchilar:**

Urganch shahar 19-son maktabning I-toifali matematika o`qituvchisi **Abdullayeva O`.**

**Taqrizchilar:**

Urganch shahar 19-son maktab direktori **A.Inoyatova A.M**

Urganch shahar 19-son maktabning ma`naviy va ma`rifiy ishlar bo`yicha direktor o`rinbosari **Polvanova G.**

Urganch shahar xalq ta`lim ma`naviyat va ma`rifat ishlari metodisti **Rajapov S**

*“Askari quvvatli mamlakat boy bo`lur, boy mamlakatning askari quvvatli bo`lur”.*

*“Sher yigitni nomus o`ldirar”.*

***A.Temur.***

Tadbirda II Jahon urushi qatnashchilari, baynalminal jangchilar harbiy xizmatni o`tab qaytgan hamda ayni vaqtda harbiy xizmatni o`tayotgan askarlar mahalla faollari taklif qilinadi.

Ma`naviyat va ma`rifat ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari tadbirni ochiq deb e`lon qiladi.

Maktab rahbari Vatan himoyachilari kuni haqida qisqacha ma`lumot berib o`quvchilarni mehmonlar bilan tanishtiradi.

Kechani o`quvchilar davom ettiradi.

## **14 fevral “Vatan himoyachilari” bayrami kuniga bag`ishlangan tadbir dasturi**

### **Mavzu: “Yurt tinchligi muqaddas”**

#### **1-boshlovchi:**

Assalomu alaykum hurmatli mehmonlar aziz faxriylar qadrli o`qituvchilar va tengdoshlar!

#### **2 – boshlovchi**

Assalomu alaykum qalbi qaynoq yuzlaridan nur taraluvchi muhtarama insonlar.

#### **1- boshlovchi.**

Bugun biz hurmatli aziz erkaklarni ulug` ayyomlari bilan tabriklab barchan “Yurt tinchligi muqaddas” mavzusida o`tkaziladigan tadbirimizga taklif qilamiz. Bugungi tadbirimizni maktab ma`naviy va ma`rifiy ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari Polvonova Gulbahor uztoz ochib beradi.

#### **2- boshlovchi**

Assalom ona yurt tonglar o`lkasi  
Ta`rif tavsifingni yo`q nixoyasi  
Senga bag`ishlanur muqaddas qo`shiq  
Bu o`zbek elining o`z madhiyasi.

*Barcha madhiyani kuylaydi.*

#### **1-boshlovchi**

Qurolli kuchlar davlatimiz xafsizligi va xalqimiz tinch hayotinin ta`minlaydi.

Azal yormiz shina biz, el deb, yurt deb yonamiz.  
Qadim mashhur To`maris axir bizning onamiz.  
Moziydan mashhur diyor, shon-shuhratga sazovor,  
Qonimizda bobolar, momolarning ruhi bor.

#### **2-boshlovchi**

Yurt tinchligi vatan azodligi va mustaqilligi bilan chambarchasi bog`liqdir.

Ona vatan! Bu soʻz zamirida qanchalar maʼno bor. Uning har zarra tuprogʻimuqaddas. Vatan sarxadlarini qoʻriqlar, uni koʻz qorachigʻidek saqlash har bir yigitning burchidir. Vatan himoyachisi mard, jasur, bilimli va sogʻlom boʻlishi darkor. Bugun armiyamiz ana shu talablarga javob berishi, shubxasiz.

### **Sheʼr: “Tanidi jahon bugun oʻzbek elimni”**

Tarixda koʻxna noming – ona Turkiston,  
Ajdodlarga tugʻ bergan – Ota Turkiston,  
Shiroq, Toʻmarislar nomus - iymonsan,  
Temir Malik, Jaloladdinga vijdonsan,  
Tanidi jahon bugun oʻzbek elimni.  
Yurtim, xizmatingga shayman bogʻlab  
belimni.

Oʻzbek nomi bugun dunyoda, jaranglar,  
millatim jahonga yuz tutdi, qaranglar,  
Oʻzbekim tanglayida marjon ter boʻl  
Istiqbolim oy nurida oʻranglar  
Tanidi jahon bugun oʻzbek elimni  
Elga sadoqatli yorman bogʻlab belimni.  
Mustaqil yurtimga Alpomishder er boʻl,  
Barchinoylar ishq tushgan ber sheʼr boʻl  
Oʻzbekim tanglayida marjon ter boʻl  
Or – gʻururring boʻlmasa zambil er boʻl  
Tanidi jahon bugun oʻzbek elimni  
Xizmatingga biz tayyor bogʻlab belimni.  
Orzu – niyating istiqbolga mushtarak  
Mustaqil yurtim 14 yoshing muborak  
Shaxdam qadamlaring istiqboldan darak  
Tanidi jahon bugun oʻzbek elimni  
Qish, kuzingda bahorman bogʻlab belimni

### **1-boshlovchi**

Xalqimizning eng katta boyligi tinchligi osoyishtalik, vatanimiz sarhadlarining dahlsizligi el-yurtimizning asl muddasi ham shu. Har yili qurolli kuchlarimiz tashkil qilingan kunni nishonlar ekanmiz avvalom

bor sizlarning barchangizni bugungi qutlug` ayyom bilan, butun xalqimiz, ko`taringki ruh bilan nishonlayotgan “Vatan himoyachilari” kuni, O`zbekiston qurolli kuchlarining 14 yillik bayrami bilan chin qalbimizdan tabriklaumiz.

Qubro bizda yetishgan, elga jon baxsh etishgan,  
“Vatanni suymoq iymondan” deya xitob etishgan.  
O`rnakdir ular bizda, mard har bir o`g`il qizda,  
O`tganlarning ruhlari madadkor aziz bizda.

### **She`r:”Ostona”.**

Ostonadan boshlanur bu aziz Vatan,  
Bu hikmatga Buyuk moziy ham tan bergan,  
Shodligi – g`amlarga sherik chin dardoshsan,  
Bizdan, keyin ham boqiy nasl qarordoshsan.  
Ostonaga kelgan doim ko`p yaxshilar,  
Qadamlarga hasonat, qalbi naqshlilar,  
To`yxonaga aylansin kuylab baxshilar  
Hirom aylab raqsga tushsin uzun sochlilar.

Ostonadan soti ham tillodan bo`lsin  
So`zlar boshi kalomullodan bo`lib  
Davrani katta oling, mehmonga to`lsin.  
Yaxshilar tashrifidan iymonga to`lsin.  
Ostonalar g`am nimaligin, bilmasin  
Qutlug` dargohga yomon ko`zlar tushmasin  
Qayg`u alamlar kech kim bag`rin tilmasin  
Yovuz niyatli g`animlar hech kelmasin.

### **2-boshlovchi.**

Hozir o`quvchilarimiz ijrosida „Biz askarmiz“ qo`shig`ini tinglaysiz marhamat.

### **Qo`shiq: „O`zbekiston askarlarimiz“**

Gurs – gur tashlab mardona qadam  
Biz maydondan o`tamiz shahdam  
Yer-u samo kelar larzaga

Qo`shiq bizda jo`r ovoz hamdam.

### **Naqorat.**

Vatanimiz muzaffar yurtning  
Tarixiy va jangovar yo`lning  
O`zbekiston askarlarimiz  
Yosh navqiron lashkarlarimiz.

Qo`limizda qudratli qurol  
Egarlangan ot jiyron misol  
Shaydir ishga tegar nishonga  
To`ppa-to`g`ri aniq bazavol.

Vatan iymon vatan jonimiz  
Sarhadlarin chin posbonimiz  
El yashasin tinch va osuda  
Dahlsizdir yurt osmonimiz.

### **1-boshlovchi**

Vatan – bu bizning ota-bobolarimiz buyuk ajdodlarimiz yashagan yurt. Vatan – bu biz tug`lib o`sgan, kindik qonimiz to`kilgan zamin. Vatan – bu bizning guvohchimiz va qayg`umizning guvohi bo`lgan diyor.

Vatan – bu bizning keyingi avlodlarimiz yashayotgan yurt.

### **She`r: “Xalq uchun”**

Yigit bo`lgan arslon kabi tug`ilgin  
Tanlab bo`lmay xizmat qilgin xalq uchun  
Yigit bo`lsang arslon kabi tug`ilgin  
O`zni demay xizmat qilgin xalq uchun.

Berdimurod o`ylab aytgin so`zingni  
Ko`tarma, lo urib faqat o`zingni  
Qizartmaqay birov saning yuzingni  
Qo`ldan kelsa xizmat ayla xalq uchun.

Yetarsan murodga gar xizmat qilsang  
Eling yo`llagancha xar qayon ketsang

Har qachon dushmanning boshiga yetsang  
Olgish olib xizmat ayla xalq uchun.

Yigit kishi odam dilin eritar  
Aytar so`zin boldan shiringroq aytar,  
Biz aytgan so`zidan, qaytmasdan ketar  
Aynimasdan xizmat etar xalq uchun.

Yigit kirmas foziqlarning so`ziga  
Aslo tushmas manmanlikning iziga  
G`ayrat berib olguncha o`zida  
Xizmat etar mudom qondosh xalq uchun.

Mard yigitning agar sevsal elati  
Kundan-kunga o`rtar uning quvvati  
Ortida qoladi yigit shuhrati  
Shuning uchun xizmat etar xalq uchun

Ko`p yig`lama o`z bag`ringni dog`lama  
So`zni chertib elga o`zga chog`lama  
Dushmandan xavf etib yo`ling bog`lama  
Umr bo`yi xizmat ayla xalq uchun.

## **2- boshlovchi:**

Vatanga muhabbat vatanparvarlikni asl ko`rinishidir. Vatanga munosib farzand bo`lish qadrdon tuproq bilan chambarchas bog`liq ekanligimizni teran idrok etish, unga chin farzandlarcha munosibatga bo`lish undan bir hissa narsa olinsa, yuz hissa qilib qaytarish, vatanni anglash va ardoqlashning bir ko`rinishidir.

### **She`r: “Bilib qo`yki seni vatan kutadi”.**

Sen bu kun sinfda shod yurak bilan  
Sinov navbatini kutib turasan  
A`lo mamlakatning a`lo farzandi.  
Bilib qo`yki seni vatan kutadi.

Globusda bo`lgan har kichik nuqta  
Millonlab qondoshga vatan albatta  
Baxtiyor xalqimiz yashar abadiy



Bilib qo`yki seni vatan kutadi.

She`rdir lirika, balki oddiy til  
Xalqlarning tillari bir- xil emas bil  
Diplamat bo`larsan shu bu kun endi  
Bilib qo`yli seni vatan kutadi.

Fanlar bor - fanlar ko`p o`rganishga kuch  
Yerda yur suvda suz osmon uzra uch  
Xammasida a`lo barchadan oldin  
Bilib qo`yki seni vatan kutadi.

### **She`r: „Saodat soqchilar“**

Shonli g`olib Armiya,  
G`ururimiz faxrimiz  
Tilga olsak nomini  
Ochiladi bahrimiz,  
U bor: hayot, kundan-kun  
Yasharadi odatda.  
Vatanimiz mangu hur  
Xalqimiz saodatda  
Agar iflos qo`lini  
Yurtimizga cho`zsa yov  
Armiyamiz zarbidan  
Yanchiladi beayov.  
Baxtimizga bor bo`ling  
Vatan mehribonlari  
Saodat soqchilari  
Tinchlikning posbonlari !

#### **1-boshlovchi.**

Vatan deb shiroq, To`maris, Spitamen, Muqannan, J.Manguberdi,  
Temir Malik... Shoh Feruzlar o`z jonlarinin fido qilganlar.

## She`r: “Temur avlodi”

So`rasa derlar ahli jahon: biz Temur avlodimiz.  
Yeri ko`kda mardi maydon – biz Temur avlodimiz.  
Mulki Azam, Mulki Arab, mulki sinu Hind-aro.  
O`zi bedi, o`zi hoqon – bir Temur avlodimiz.  
Ochun guvoh, bashar guvoh, guvoh falakda oftob  
Turkistonda sohib davron – biz Temur avlodimiz.  
Buyuk sohibqiron nomi taxti kabi yuksakdir.  
Poytaxtida sohibqiron – biz Temur avlodimiz  
Garchi taxtga valiahdimiz toji taxt bo`lgan talash  
Toji taxtga chin istiqlol boshda tojing muborak  
Taxtga chiqdi boz kurogon – biz Temur avlodimiz.

## 2- boshlovchi

Vatan – hayot bergan otam, ham onam,  
Vatan – yuragimda yakka-yagonam  
Ajododim merosi – o`zbekistonim,  
Avlodim quyoshi – O`zbekistonim.

## She`r: “Ota tilagi”

Taajub deymanu yoqa tutaman,  
Murg`ak bola edim kecha—ku o`zim.  
Bugun qarabsizki, men ham otaman  
Mening ham o`g`lim bor-umid yulduzim.  
Qalbim urmoqda shu mushtdek yurakda  
Yangidan o`smoqda kichkina jismim  
Demakki hayotim davom etmoqda.  
Demakki, olamda qolmoqda ismim  
Nima bor men uchun uningdek aziz,  
Arzuz bir so`ziga jon fido etsam.  
Jahonda nimaki bo`lsa eng laziz,  
faqat uning uchun muhayyo etsam.

## She`r: „Otam“

Joningizga jon bo`lay darmonim otam,  
Kamtarin, piru badavlat, shavkatu shonim otam,  
Gul hayoti ko`rki yorqin davri davronim otam,  
Davlatin pokiza vikdon, usta bog`bonim otam,  
Siz bilan yo`q zarracha, ko`ksimda armonim otam.

Mehribon mehriyodir o`z shirin farzandiga,  
Ul ishongan bog`i rog`i sevgani dilbandiga,  
Chashmadek mehru tuganmas o`z jigar payvandiga  
Joningizga jon bo`lay jonimga darmonim otam  
Siz bilan yo`q zarracha, ko`ksimda armonim otam.

### 1-boshlovchi.

Yurtimizda mustaqillikni ko`ralmaydigan ayrim vatanfurushlar, 1999 yil 16 fevral kuni vatanimiz poytaxti Toshkentda o`z terrorchilik harakatlarini amalga oshirib, qanchadan-qancha begunoh odamlarning umriga zavol bo`ldilar.

### 2-boshlovchi:

Yaxshiyamki baxtimizga vatan himoyachilari posbonlari mard va jasur o`g`lonlari huquqni muhofaza qiluvchi ichki ishlar hodimlari bor ekan.

### She`r: “Turib qolgan istiqlolni asraylik!”

Olavlanar yurtimda bir hasrat  
Tug`yonli tuyg`udir, nomidir nafrat  
Larzaga kelib qalbim der: “Ming lanat”  
Turib qolgan istiqlolni asraylik!  
Qasd etib g`animlar reja tuzdilar  
Istiqlolni mo`ljallab o`q uzdilar  
Mustaqil yurtim oromin buzdilar  
Duoibad girdobiga chiqib suzdilar  
Turib qolgan istiqlolni asraylik!

Otildi tosh yigirma to`rt millionga

Ko`tdilar qo`l padar, xazrat insonga,  
Keltirdilar shak iymoni – Qur`onga,  
Bo`yolsin g`animlar qizil qonga!  
Turib qalqon istiqlolni asraylik!  
Jaholat hur istiqlolga qasd etdi  
Bu noxush habar olamga ketdi,  
Qachonki, nomardlar maqsadga etdi.  
Kim o`z karvoniga nursa, faqat it-da  
Turib qalqon istiqlolni asraylik.

Xalqim – teran dengiz chidar haqida  
El sotqinlarni yutqay o`z qariga  
Manqurtlar qilsa Xiyonat diyoriga  
Vatanfurushlarni asqay o`z doriga  
Turib qolqon istiqlolni asraylik.  
Kechirarmi, nonko`rni Ona tuproq.  
Eturmi padar begunoh o`g`lini oq  
Tig` ko`tarib o`g`il otaga etsa gunoh  
Bunday farzandni Ollah qilgay gumroh  
Turib qalqon istiqlolni asraylik!

### **She`r: „Shunday o`g`lonlaring bor“**

- 1) Tomirida oqar qubrolar qoni,  
Balo ofatlarda omonda joni  
Pahlavon Mahmudday butun iymoni,  
Vatan sening shunday o`g`lonlaring bor  
Tinchliging saqlovchi posponlaring bor.
- 2) Onasi sevgandek sevar vatanni  
Yo`lida baxsh etar jon ila tanni  
Jannat deb bilmas u o`zga maskanni  
Vatan sening shunday o`g`lonlaring bor  
Shunday o`g`lonlarga jon bo`lsin misor.

### **Qo`shiq: “Biz askarmiz”**

- 1) Biz askarmiz posbonmiz  
Ulug` yo`lda karvonmiz  
Tinchlik uchun qalqonmiz

Hech buzilmas qo`rg`onmiz.

### **Naqorat**

Bir, ikki, uch, bir ikki  
Ayting marra kimniki?  
Albat marra bizniki  
Jasur o`g`lon qiznimi.

- 2) Ona yurt Turkistonda  
Yeru osmon ummomda  
Chiniqishni qo`ymaymiz  
Tinchlik kuyin kuylaymiz.

### **1-boshlovchi:**

Vatan himoyachilarining say harakatlari vatanlariga bo`lgan mehr-u muhabbatlari sadoqatlari evaziga yurt tinchligi asrab qolindi.

### **2-boshlovchi:**

O`zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroni burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o`tashga majburdir. O`zbekiston Respublikasi 45,52, 125, 126-moddalarida qurolli kuchlar to`g`risida quyidagi so`zlar bayon qilingan.

### **She`r: “Vatanimga xizmat qilaman”**

O`g`loniman Turon yurtining,  
Ozod, obod, bo`ston yurtining,  
O`zi beklar zurriyotiman.  
Vatanimga xizmat qilaman!  
Tinchlik uchun jonimni berib,  
O`z postimda mardona turib,  
Vatanimga xizmat qilaman!  
Sohibqiron Amir Temurday  
Jahongashta Mirzo Boburday,  
Xalq yo`lida og`ishmay birday  
Vatanimga xizmat qilaman.

### **1-boshlovchi:**

Hurmatli mehmonlar, aziz ustozlar va tengdoshlar shu aziz vatan deb shahid ketgan marhum ota-bobolarimiz askarlarimiz xotirasi uchun bir daqiqa sukud saqlashingizni so`rayman.

Rahmat o`tirishingiz mumkin.

### **2-boshlovchi:**

Vatan uchun jonin bergan insonlar hech qachon unitilmaydi, abadiy – abad yodimizda va qalbimizda mangu yashaydilar.

### **She`r: “Sen uchun vatan”.**

Adolat quroli xushryorlik shior,  
Po`latday mustahkam iymonlarimiz.  
Yurt uchun, xalq uchun ichganmiz qasam,  
Bag`ri keng elimning vijdonlarimiz.

Bizda bor-halollik, mardlik matonat,  
Qalablarda mujassam iroda, bardosh.  
Sezgirman, chaqqonmiz sen uchun Vatan,  
G`animga shafqatsiz, do`stlarga yo`ldosh.

### **1-boshlovchi:**

O`zbekiston qurolli kuchlarida xizmat qilayotgan askarning onasiga maktubi sahna ko`rinishi unga javoban ona duosi, marhamat.

### **She`r: “Askar maktubi”.**

Siz suratda boqasiz g`amgin,  
Nahot sog`inch qiynar, onajon?  
Arqoq tortmish manglayga ajin  
Sog`inchdanmi yo bu onajon.

Yuragingiz sig`may ko`krakka  
Tunlaringiz otasi bedor  
Askar axir menmidim yakka  
Onasini qilgan intizor  
Tunlar kiprik qoqmaisiz bedor.

Yoshlar o`tsa k`ochadan kuylab  
Deysiz balki o`g`lim ovozi?  
O`zingizcha ismimni kuylab  
O`g`lingizdan bo`larsiz rozi  
Dilda yangrab orzular sozi.

Olislarga boshladi iqbol  
Chegarada soqchiman mana  
Yigit burchim o`tab men xalol  
Oq sutingiz oqlayman ona  
Qo`riqlayman yurtni mardona.

**She`r: “Ona duosi”**

Safar qilsang uydan ko`ngling tog` qilgin  
Lekin g`iybat bor joylarda yo`q bo`lgin.  
Shoir bo`lsang yomonlikka o`q bo`lgin,  
Dardlilarning dillarini yorit bolam.

U yo`qlik ham o`zimizdau xilma-xil  
Yaxshilikda, hamma qo`dhni normas bil  
Bir do`sni deb bir do`stingni sotmagan  
Do`st orttiru, do`stlaringni teng tut bolam.

Ig`vogarning quloqlari juda uzun  
Xiyonat bu o`ylamasdan aytgan so`zing  
O`ylaringni aytib ko`zgu ikki ko`zini  
Bad o`ylarni boshqinangdan irg`it bolam.

Dong`I chiqmas bir yakka ot – yolg`ozlik  
O`z juftidan judo qanot – uolg`izlik  
Aytib bo`lmas unis faryod – yolg`izlik  
Yolg`izlanma yaxshilarni do`st tut bolam.

Elga qalbin bergan qalbning bunyodisan  
Sen zahmatga egiz xalqning zurriyodisan  
Rostlik qilma Alpomishning avlodisan  
Muhtojlarning g`amlarini arit bolam.

Yo`ling ochiq bolam, bo`lsang sen ochiq qo`l

Omin endi paloponim senga oq yo`l  
Bir tilagim: qayda bo`lsang salomat bo`l  
Va uydagi erkalinging unut bolam.

## 2-boshlovchi

Bugungi davramizga yig`ilgan aziz insonlarning katta ko`pchiligi ustoz murabbiylardan iborat. Maktabimiz ustozlarini ham shu muborak ayyom bilan yana bir bora qutlaymiz.

### **She`r: "Otam degim kelar sizni ustozim!"**

Ustozni ulug` deydilar  
So`zlari gavhardan qutlug` deydilar  
Samoviy so`zlarga yo`q mening tobim  
Sizni otam degim kelar ustozim.

Garchi ota deb atalmish zotlar,  
Bu nomga munosib, bu nomga zotlar  
Begona dillarni etib obodlar  
Sizni otam degim kelar ustozlar!

Farzandga otadan ulug` zot yo`qdir  
U bilan har uyning nazari to`qdir.  
Otamga o`xshaysiz mehringiz cho`g`dir  
Sizni otam degin kelar ustozim

Ey kamtarin o`zi aziz muallim  
Yuzi yorug` so`zi laziz muallim  
Ta`rifingiz qo`shiq, doston qilgayman  
Sizga omad uzoq umr tilayman

Ustoz sozga solay badiiy hayotni  
Buyuk zot oldida bosh egay bir on  
El baxti, iqbolin kuylagan zotni  
Xurmat bilan eslab odatda zamon



## She`r: "Ustoz muallim".

Dunyoda buyuk kasb bor, bu – Muallim  
Qalbida hamisha baxor, bu – Muallim  
Sadoqatdir unga yor, bu – Muallim  
Nur, ziyo, ilm unga bisyor, bu – Muallim  
Ustozlarga bugun qilurmiz ta`zim  
Ayting kim olmagan muallim ta`lim  
Ustozlar donodir so`zlari halim  
Ustozlar ustozlari – Ustoz muallim.

Ilm – Ma`rifatsiz dunyo ne kechgay  
Nur – ma`naviyatsiz dunyo ne kechgay  
Haq – adolatsiz bu dunyoni ne kechgay,  
Ziyo – qadriyatsiz bu dunyo ne kechgay.  
Ma`naviyat bog`boni – Ustoz muallim,  
Erdi saxobatga hamrox muallim  
So`zi bilan ishi bir, soz muallim!  
Qalbi doim bahoru yoz muallim.

Ustoz muallim bor joydadir but iymon  
But iymon bor joydadir Xazrati inson  
Zinatlagay muallim tarozibon vijdonli  
O`lchagay muallim tarozibon vijdonni  
Ustozing otangdan ulug` deydilar,  
Shak keltirsang, yuz qarolug` deydilar  
Foniy dunyoda ohirat g`anim deydilar

Muallim bor ekan, yashar ezgulik,  
Muallim yor ekan – yashar buyuklik,  
Muallim xor ekan – yashnar ko`rgulik  
Dunyo baxtiga tursin muallim tirik!  
Kasblar ichida muallim eng zo`rdir.  
O`z kasbini xor aylaganlar sotqin va ko`rdir  
Oqpadar farzandlaring manglaying sho`rdir  
Ustoz muallimlarga munosib joy – to`ydir.

Maktab ilm o`chog`i, nondek lazizdir  
Pok nuri iymonim kabi azizdir

Ma`rifat, urfon yo`li-oydin hargiz,  
Shu qutlug` dargoh sarvari – ustoz sizsiz.  
Muallimlik – tanlagan va sevgan kasbim  
Or-nomusim, vijdonim, iymonim, faxrim  
Bilmasangiz bilganlardan so`rang aslin,  
Muallimlar avlod – shajarasi naslim!

Maktabdir jamiyatning nurli kelajagi  
Hikmatlarga burkansin yurtim har burchagi  
Ilm maskanlaridir ma`naviyat tagi  
Rahmon – ilm – ma`rifat, iymon kuyunchagi.

**1- boshlovchi:**

Xozir sizlarga sulaymon “Karate” klubining qatnashchilari katta turlarini namoyon qilishadi. Marhamat.

**2-boshlovchi:**

Xurmatli aziz davramiz qatnashchilari endi so`z navbatini mehmonlarga bersak. Marhamat.

1) Tabrik uchun so`z navbatini hurmatli ustozimiz maktabimiz direktori Aqljon opa Inoyatovaga beramiz. Marhamat.

**1-boshlovchi:**

2) Endigi so`z navbati fahriylarimizdan biri ulug` vatan urushi qatnashchisi Masharip ota Shomurodovga beramiz.

3) So`z Afg`oniston urush qatnashchisi faxriymiz Zokir aka Vaisovga bersak.

**2-boshlovchi:**

Aziz mehmonlar, qadrli ustozlar va tengdoshlar shuning bilan Vatan ximoyachilari kuniga bag`ishlab o`tkaziladigan tantanali kechamiz yakunlaymiz.

**1-boshlovchi:**

E`tiboringizga o`quvchilar tomonidan tayyorlangan konsert dasturini havola etamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi Toshkent – O`zbekiston – 1992 yil.
- 2 Rahmon Masharipov “Muhabbatnoma” asari Urganch 2000 yil.
- 3 Rahmon Masharipov “Sadoqatnoma” asari Urganch 1999 yil.
- 4 A.T, To`rayev “Tarbiyaviy darslarni o`tish” kitobi. Toshkent “O`qituvchi” 1994 yil.
- 5 Urganch shahar xalq ta`limi bo`limi umumta`lim maktablarining “Ma`naviy-ma`rifiy va tarbiya ishlari bo`yicha direktor o`rinbosariga metodik tavsiya”. Urganch 2001 yil.
- 6 Sa`dulla Nurmetov “Istiqlol navosi” ashulla kitobi. Toshkent “O`qituvchi” 1997 yil.
- 7 Aziz Said Tilak Jo`ra “Askar qo`shiqlari” Toshkent “Navro`z” nashriyoti 1994 yil Dilshod Qilichning “Turondod” korxonasi.

